



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(7)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,  
27-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari .....	10
<b>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</b>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni .....	13
<b>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	17
<b>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</b>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	21
<b>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</b>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	26
<b>Madumarov Jahongir Urinbayevich</b>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli .....	29
<b>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</b>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari .....	33
<b>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</b>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir .....	39
<b>Turdibekova Risolat Shermatovna</b>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati ....	42
<b>Tursunova Durdona</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari .....	46
<b>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</b>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi .....	49
<b>Yusupova Muxabbat Anatolevna</b>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов .....	53
<b>Рысова Галия Байбулатовна</b>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts .....	57
<b>Asadova Zebiniso Makhmudovna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari .....	62
<b>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<b>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<b>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</b>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari .....	76
<b>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</b>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	79
<b>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</b>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish .....	83
<b>M. Badalova</b>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы:  
современные педагогические подходы.....86  
**Родина Ирина Витальевна**

# OLIJY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Beketov Nurseit Alijan o'g'li**

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti

akademik faoliyat va ilmiy ishlar bo'yicha prorektori

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish, professor-o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini monitoring qilish masalalari asosiy yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada pedagogik innovatsiyalar ta'lim jarayonini oddiy texnik yangilash vositasi emas, balki ta'lim mazmuni, metodikasi, baholash tizimi va boshqaruv mexanizmlarini sifat jihatidan takomillashtiruvchi tizimli omil sifatida talqin etiladi. Shuningdek, oliy ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy etishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, ularning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'siri hamda amaliy natijadorligini baholash mezonlari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagogik innovatsiyalar samaradorligi ularning maqsadga yo'naltirilganligi, o'qituvchi kompetentligiga bog'liqligi, talaba faolligini ta'minlashi, ta'lim natijalarini aniq mezonlar asosida baholashi va oliy ta'lim muassasining strategik boshqaruv tizimi bilan uyg'unlashganligi orqali namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, pedagogik innovatsiya, ta'lim sifati, innovatsion texnologiya, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim, interaktiv metod, monitoring, baholash, kasbiy kompetentlik.

**Abstract:** This article analyzes the scientific, theoretical, and practical mechanisms for improving the quality of education through the implementation of pedagogical innovations in higher education institutions. The study examines innovative pedagogical technologies, digital learning platforms, competency-based approaches, interactive methods, the effective organization of independent learning, the development of teachers' innovative competence, and the monitoring of education quality. Pedagogical innovations are interpreted not merely as tools for the technical modernization of the educational process but as systemic factors that qualitatively improve educational content, teaching methodology, assessment practices, and management mechanisms. The article also highlights the organizational and pedagogical conditions for implementing innovative approaches in higher education, their influence on education quality indicators, and the criteria for assessing practical effectiveness. The findings suggest that the effectiveness of pedagogical innovations is determined by their goal-oriented nature, dependence on teacher competence, their ability to ensure student engagement, the assessment of learning outcomes based on clear criteria, and integration with the strategic management system of higher education institutions.

**Key words:** higher education, pedagogical innovation, quality of education, innovative technology, competency-based approach, digital learning, interactive method, monitoring, assessment, professional competence.

**Аннотация:** В данной статье анализируются научно-теоретические и практические механизмы повышения качества образования посредством внедрения педагогических инноваций в высших образовательных учреждениях. В исследовании рассматриваются инновационные педагогические технологии, цифровые образовательные платформы, компетентностный подход, интерактивные методы, эффективная организация самостоятельного обучения, развитие инновационной компетентности преподавателей, а также мониторинг качества образования. Педагогические инновации рассматриваются не только как средство технического обновления образовательного процесса, но и как системный фактор качественного совершенствования содержания образования, методики преподавания, системы оценивания и управления. Также раскрываются организационно-педагогические условия внедрения инновационных подходов в высшем образовании, их влияние на показатели качества образования и критерии оценки практической результативности. По результатам исследования установлено, что эффективность педагогических инноваций проявляется через их целевую направленность, зависимость от компетентности преподавателя, обеспечение активности студентов, оценивание образовательных результатов на основе четких критериев и интеграцию с системой стратегического управления высшего образовательного учреждения.

**Ключевые слова:** высшее образование, педагогическая инновация, качество образования, инновационная технология, компетентностный подход, цифровое образование, интерактивный метод, мониторинг, оценивание, профессиональная компетентность.



## KIRISH

Jahon oliy ta'lim tizimida kechayotgan globallashuv, raqamli transformatsiya, mehnat bozorining tez o'zgarishi va bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi ta'lim sifatiga nisbatan yangi talablarni yuzaga chiqarmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi faqat bilim beruvchi tashkilot sifatida emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, ijodiy yondasha oladigan, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlovchi innovatsion muhit sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik innovatsiyalar oliy ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishning asosiy vositasi va talabalarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy mustaqilligini kengaytirish, kredit-modul tizimini joriy etish, ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish va raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-oktabr 2019-yildagi 5847-son<sup>1</sup> farmoni, oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tizimli joriy etish, ularning didaktik, metodik va boshqaruv mexanizmlarini ilmiy asoslash zaruratini yanada kuchaytiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim sifatini oshirish masalasi faqat o'quv rejalarini yangilash yoki yangi texnologiyalarni qo'llash bilan cheklanmaydi. Sifatli ta'lim o'quv maqsadlari, ta'lim mazmuni, metodlar, baholash vositalari, o'qituvchi kompetentligi, talaba faolligi, ta'lim muhiti va boshqaruv tizimining o'zaro uyg'unligiga bog'liq murakkab pedagogik jarayondir. Shu sababli pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda ularning tashqi ko'rinishiga emas, balki talaba shaxsida yuzaga keladigan sifat o'zgarishlariga, kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishiga va o'quv natijalarining barqarorligiga e'tibor qaratish lozim.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi oliy ta'lim amaliyotida innovatsion metodlar, raqamli platformalar, interaktiv mashg'ulotlar, masofaviy va aralash ta'lim shakllari keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ularning ta'lim sifatiga real ta'sirini aniqlash, samaradorlik mezonlarini belgilash va tizimli mexanizm sifatida boshqarish masalalari yetarli darajada chuqur o'rganishni talab etadi.

Ko'plab holatlarda innovatsiya ayrim texnik vosita yoki metodik yangilik sifatida qabul qilinadi, ammo u o'quv maqsadi, natija, baholash va refleksiya bilan bog'lanmaganda, kutilgan samarani bermaydi. Shuning uchun maqolada pedagogik innovatsiyalarni oliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yaxlit tizim sifatida tahlil qilish maqsad qilingan.

Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarini aniqlashda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlarga tayanildi.

Tizimli yondashuv pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayonining alohida elementi emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita, baholash va boshqaruvdan iborat yaxlit pedagogik tizim tarkibida tahlil qilish imkonini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa innovatsion ta'lim natijasini faqat nazariy bilimlar hajmi bilan emas, balki talabanning kasbiy vaziyatlarda bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy sifatlarini qo'llay olish qobiliyati bilan baholashni nazarda tutadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogik innovatsiya, ta'lim sifati, ta'lim texnologiyasi, raqamli pedagogika, o'qituvchi kompetentligi va sifat monitoringiga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning ta'limda texnologiya va sifadni ta'minlash bo'yicha hisobotlari, pedagogika va ta'lim menejmenti sohasidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, ularni joriy etish bosqichlari, oliy ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar va amaliy samaradorlik shartlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Maqolada qiyosiy-tahliliy, ilmiy umumlashtirish, pedagogik modellashtirish va mazmuniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tahliliy metod orqali an'anaviy va innovatsion ta'lim yondashuvlarining ta'lim sifatiga ta'siri o'zaro solishtirildi. Ilmiy umumlashtirish metodi yordamida pedagogik innovatsiyalarning oliy ta'lim

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

jarayonida qo'llanilishiga oid nazariy qarashlar umumlashtirildi. Pedagogik modellashtirish esa ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarini didaktik, metodik, tashkiliy va baholash komponentlari asosida izohlash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni samarali joriy etish bir nechta o'zaro bog'liq mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Eng avvalo, innovatsion ta'limning maqsadli-motivatsion mexanizmi muhim ahamiyatga ega. Bu mexanizm ta'lim jarayonining asosiy maqsadini talabalarning faqat bilim olishi bilan emas, balki kasbiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi, ijodiy yondashuvi va amaliy faoliyatga tayyorligi bilan bog'laydi. Agar pedagogik innovatsiya o'quv maqsadlariga bevosita xizmat qilmasa, u faqat tashqi yangilik bo'lib qoladi. Shuning uchun har bir innovatsion metod yoki raqamli vosita aniq o'quv natijasi bilan bog'lanishi zarur. Ikkinchi muhim mexanizm mazmuniy-didaktik mexanizmdir. Oliy ta'limda ta'lim sifati o'quv dasturlarining dolzarbligi, fan mazmunining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi, nazariya va amaliyotning uyg'unligi, fanlararo integratsiya hamda talabalarning mustaqil izlanish faoliyatini rag'batlantirishi bilan belgilanadi. Pedagogik innovatsiyalar ta'lim mazmunini tayyor bilimlarni uzatish shaklidan muammoli, izlanishga asoslangan, loyihaviy va amaliy yo'naltirilgan mazmunga o'tkazadi. Bunda talaba o'quv jarayonining passiv tinglovchisi emas, balki bilimni izlovchi, tahlil qiluvchi, qo'llovchi va baholovchi faol subyektga aylanadi.

Uchinchi mexanizm metodik-texnologik mexanizm hisoblanadi. Ushbu mexanizm interaktiv metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, keys-stadi, teskari sinf, aralash ta'lim, elektron portfolio, virtual laboratoriya, raqamli testlar va ta'lim platformalaridan maqsadli foydalanishni o'z ichiga oladi. Metodik-texnologik mexanizmning samaradorligi pedagogik texnologiyaning o'qituvchi tomonidan qanday tanlanishi va qo'llanishiga bog'liq. Masalan, teskari sinf modeli talabani mustaqil tayyorgarligini kuchaytiradi, auditoriya vaqtini esa muhokama, tahlil va amaliy topshiriqlarga yo'naltiradi. Loyiha asosida o'qitish talabalarda ijodkorlik, jamoada ishlash, kommunikativ madaniyat va kasbiy mas'uliyatni rivojlantiradi. Raqamli platformalar esa o'quv materiallariga doimiy kirish, individual topshiriqlar berish, avtomatik teskari aloqa va ta'lim jarayonini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. To'rtinchi mexanizm professor-o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish bilan bog'liq. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayonida asosiy subyekt o'qituvchi hisoblanadi. Chunki innovatsion texnologiya o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirmaydi; uning samaradorligi o'qituvchining metodik mahorati, raqamli savodxonligi, refleksiv fikrlashi, baholash madaniyati va talaba bilan hamkorlik qilishga tayyorligiga bog'liq. Innovatsion kompetentlik o'qituvchining yangilikni tanlash, uni fan mazmuniga moslashtirish, o'quv jarayoniga integratsiya qilish, natijani tahlil etish va zarur hollarda metodik tuzatishlar kiritish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Beshinchi mexanizm baholash va monitoring mexanizmidir. An'anaviy baholash ko'pincha talabani eslab qolgan bilimni tekshirishga yo'naltirilgan bo'lsa, innovatsion ta'limda baholash o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Formativ baholash, rubrikalar, elektron portfolio, o'zaro baholash, o'z-o'zini baholash va avtomatik tahlil vositalari talabani o'sish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi. Ta'lim sifatini oshirish uchun baholash shaffof, mezonli, kompetensiyaga yo'naltirilgan va muntazam teskari aloqa bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Bunday yondashuv talabaga o'zining kuchli va zaif tomonlarini anglash, o'qituvchiga esa o'quv jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Oltinchi mexanizm tashkiliy-boshqaruv mexanizmidir. Pedagogik innovatsiyalar alohida o'qituvchining tashabbusi bilangina cheklanib qolmasligi kerak. U oliy ta'lim muassasasining strategik rivojlanish rejasi, sifat menejmenti tizimi, o'quv-uslubiy ta'minoti, moddiy-texnik bazasi, akademik siyosati va ichki monitoring tizimi bilan uyg'unlashgan holda joriy etilishi zarur. Ta'lim muassasasida innovatsion muhit yaratilmasa, ilg'or metodlar barqaror amaliyotga aylanmaydi. Shu bois rahbariyatning metodik qo'llab-quvvatlashi, o'qituvchilar malakasini oshirish, tajriba almashish maydonlarini yaratish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyalarni oliy ta'lim sifatini oshirish mexanizmi sifatida talqin etishda ularning mazmuni va amaliy natijasi o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsiya har doim ham samaradorlikni avtomatik tarzda ta'minlamaydi. Ayrim hollarda raqamli vositalar yoki interaktiv metodlar tashqi jihatdan zamonaviy ko'rinsa-da, ular didaktik maqsadga mos kelmasa, talabalarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash va kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga yetarli ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli innovatsion faoliyatni baholashda: "Qanday texnologiya qo'llandi?" degan savoldan ko'ra, "U qanday o'quv natijasini ta'minladi?" degan savol ustuvor bo'lishi lozim. Oliy ta'limda pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayoni talabani ta'limdagi rolini o'zgartiradi. An'anaviy modelda talaba ko'proq tayyor axborotni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa, innovatsion modelda u bilimni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, amaliy vaziyatga tatbiq etish va o'z faoliyatini baholash jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bunday o'zgarish ta'lim sifatini oshirishning muhim belgilaridan biridir. Chunki zamonaviy mutaxassis nafaqat bilimli, balki o'z bilimni yangi sharoitlarda qo'llay oladigan, muammo yechimini topa oladigan va kasbiy faoliyatda mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladigan shaxs bo'lishi



kerak. Pedagogik innovatsiyalarni samarali joriy etish uchun oliy ta'lim muassasasida akademik erkinlik va metodik mas'uliyat o'rtasida muvozanat bo'lishi zarur. O'qituvchiga metod tanlash, elektron resurslar yaratish, muammoli topshiriqlar ishlab chiqish va baholash vositalarini takomillashtirish imkoniyati berilishi kerak. Shu bilan birga, har bir innovatsion yondashuv ta'lim dasturi natijalari, fan kompetensiyalari va sifat mezonlari bilan bog'langan bo'lishi lozim. Aks holda innovatsiyalar tarqoq, tasodifiy va qisqa muddatli tajriba darajasida qolib ketadi.

Raqamli ta'lim vositalari pedagogik innovatsiyalarning eng faol rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Elektron platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellektga asoslangan yordamchi vositalar va raqamli baholash tizimlari oliy ta'limning ochiqligi, moslashuvchanligi hamda shaffofligini oshiradi. Biroq raqamli texnologiyalardan foydalanishda pedagogik maqsad, akademik halollik, ma'lumotlar xavfsizligi, talabalarning teng imkoniyatlari va o'qituvchining metodik nazorati e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Texnologiya o'qituvchini almashtiruvchi omil emas, balki o'quv jarayonini boyituvchi va individuallashtiruvchi vosita sifatida qo'llanilgandagina ta'lim sifati oshadi. Innovatsion ta'limda mustaqil ta'limning o'rni ham sezilarli darajada ortadi. Kredit-modul tizimi sharoitida talabani auditoriyadan tashqari faoliyati ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mustaqil ta'limni faqat referat yoki taqdimot tayyorlash bilan cheklab bo'lmaydi. U izlanish, tahlil, amaliy topshiriq, loyiha, keys yechimi, elektron portfolio va refleksiv hisobot kabi faoliyat turlari bilan boyitilishi zarur. Bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va baholovchi sifatida ishtirok etadi. Ta'lim sifati oshirishda innovatsion baholash mexanizmlarining ahamiyati alohida ko'zga tashlanadi.

Baholash jarayoni faqat yakuniy nazorat vazifasini bajarsa, u ta'limdagi kamchiliklarni kech aniqlaydi. Formativ baholash esa o'quv jarayonining o'zida talabaga teskari aloqa beradi, o'qituvchiga esa metodik strategiyani o'zgartirish imkonini yaratadi. Rubrikalar orqali baholash talabalar uchun natija mezonlarini oldindan aniq ko'rsatadi va subyektivlikni kamaytiradi. Elektron portfolio esa talabani individual rivojlanish trayektoriyasini kuzatish, amaliy ishlar sifatini baholash va kasbiy o'sish dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi. Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik innovatsiyalarni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun uchta asosiy shart birgalikda ta'minlanishi zarur. Birinchidan, innovatsiya ta'lim maqsadi va o'quv natijalari bilan bevosita bog'lanishi kerak. Ikkinchidan, o'qituvchi innovatsiyani mazmunli qo'llashga metodik va raqamli jihatdan tayyor bo'lishi lozim. Uchinchidan, oliy ta'lim muassasasi innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy, texnik va baholash muhitini yaratishi zarur. Ana shu shartlar uyg'unlashganda pedagogik innovatsiyalar ta'lim sifati oshirishning real va barqaror mexanizmiga aylanadi. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish ta'lim sifati oshirishning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogik innovatsiyalar ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatishi uchun ular maqsadli, tizimli, kompetensiyaga yo'naltirilgan va baholash mexanizmlari bilan uyg'unlashgan bo'lishi zarurligini ko'rsatdi. Innovatsion yondashuvlar ta'lim mazmunini amaliyotga yaqinlashtiradi, talabalarning mustaqil fikrlashi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi hamda o'quv jarayonining shaffofligini ta'minlaydi.

## XULOSA

Maqolada aniqlangan mexanizmlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifati oshirish jarayoni didaktik, metodik, tashkiliy, texnologik va baholash komponentlarining o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish, raqamli ta'lim vositalaridan didaktik asosda foydalanish, mustaqil ta'limni mazmunli tashkil etish, formativ baholash va sifat monitoringini yo'lga qo'yish alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasasida innovatsion muhit, metodik qo'llab-quvvatlash va strategik boshqaruv mavjud bo'lmasa, alohida metod yoki texnologiya kutilgan natijani bermaydi.

Umuman olganda, pedagogik innovatsiyalar oliy ta'lim sifati oshirishning tashqi vositasi emas, balki ta'lim jarayonining ichki mazmunini yangilovchi, talaba shaxsini rivojlantiruvchi va o'quv natijalarini barqarorlashtiruvchi tizimli pedagogik omildir. Kelgusida ushbu yo'nalishda innovatsion metodlarning aniq fanlar kesimidagi samaradorligini empirik jihatdan tadqiq etish, raqamli ta'lim platformalarining kompetensiyaviy natijalarga ta'sirini baholash hamda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion sifat menejmenti modellarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2019. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
2. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023. – 433 p.
3. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027: Resetting Education and Training for the Digital Age. – Brussels: European Commission, 2020.

4. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – 5th ed. – New York: Teachers College Press, 2016. – 313 p.
5. Rogers E. M. Diffusion of Innovations. – 5th ed. – New York: Free Press, 2003. – 576 p.
6. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London; New York: Routledge, 2009. – 392 p.
7. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011. – 418 p.
8. Laurillard D. Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. – New York; London: Routledge, 2012. – 258 p.
9. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.
10. Bates A. W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – 2nd ed. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2019. – 764 p.
11. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 456 p.
12. Болонский процесс: середина пути / Под науч. ред. В. И. Байденко. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. – 379 с.
13. Слостенин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика. – Москва: Академия, 2013. – 608 с.
14. Зеер Э. Ф. Психология профессионального образования. – Москва: Академия, 2013. – 416 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(7)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.